

## ULUG'BEK HAMDAMNING "MUVOZANAT" ROMANI OBRAZLAR TAHLILI

Orifjonova Nozliya Ma'ruf qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Ulug'bek Hamdam ijodi, xususan, "Muvozanat" romani badiiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Asarda inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va davr o'zgarishlari ta'sirida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlar chuqur yoritilgan. Muallif romandagi asosiy qahramonlar – Yusuf va Amir obrazlari orqali e'tiqod, ma'naviyat, hayotiy muvozanat masalalarini ochib beradi. Tadqiqotda asarning g'oyaviy mazmuni, kompozitsion tuzilishi hamda obrazlar tizimi tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik davri o'zbek jamiyatidagi ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarning badiiy aks etishi yoritilgan. Maqola adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb bo'lib, yozuvchi ijodining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** "Muvozanat", roman, obraz, Yusuf, Amir, ma'naviyat, e'tiqod, muvozanat, badiiy tahlil.

## АНАЛИЗ ОБРАЗОВ РОМАНА «МУВОЗАНАТ» УЛУГБЕКА ХАМДАМА

Орфжонова Нозлия Маруф кизи

Шахрисабзский государственный педагогический институт Студентка 1-курса филологического факультета

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творчество одного из современных узбекских писателей Улугбека Хамдама, в частности его роман «Мувозанат» («Равновесие»). Особое внимание уделяется художественному анализу произведения, раскрытию внутреннего мира человека, а также противоречий, возникающих под влиянием социальных и духовных изменений эпохи. Через образы главных героев — Юсуфа и Амира — автор показывает проблемы веры, нравственности и жизненного баланса. В статье анализируются идейное содержание, композиционная структура и система персонажей романа. Также освещается отражение социальных и духовных процессов периода независимости в узбекском обществе. Работа имеет научную значимость и способствует более глубокому пониманию особенностей творчества писателя.

**Ключевые слова:** роман, «Равновесие», персонажи, Юсуф, Амир, духовность, вера, баланс, художественный анализ



# CHARACTER ANALYSIS OF THE NOVEL MUVOZANAT BY ULUG‘BEK HAMDAM

Orifjonova Nozliya Ma'ruf qizi

*Shahrisabz State Pedagogical Institute First-year student of the Faculty of Philology*

**Annotation:** This article explores the works of Ulugbek Hamdam, one of the prominent figures of modern Uzbek literature, with a particular focus on his novel “Balance”. The study provides a literary analysis of the novel, emphasizing the depiction of human psychology, internal conflicts, and the impact of social and historical transformations. Through the main characters, Yusuf and Amir, the author addresses issues of faith, morality, and the search for personal balance. The article examines the ideological content, narrative structure, and character system of the work. Furthermore, it highlights the artistic reflection of sociocultural changes in post-independence Uzbek society. The research is academically relevant and contributes to a deeper understanding of the writer’s creative approach.

**Keywords:** “Balance”, novel, characters, Yusuf, Amir, spirituality, faith, balance, literary analysis.

## KIRISH

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti mustaqillik yillarida mazmun va shakl jihatidan tub yangilanish bosqichini boshdan kechirdi. Bu davr adabiyotida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit bilan murakkab munosabatlari chuqurroq va kengroq yoritila boshladi.

Ayniqsa, jamiyat hayotida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy o‘zgarishlar badiiy asarlarda yangi qahramonlar, yangi muammolar va yangicha tafakkur tarzini yuzaga chiqardi. Shu jihatdan zamonaviy yozuvchilarning ijodi milliy adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Ana shunday iste’dodli adiblardan biri Ulug‘bek Hamdam bo‘lib, uning asarlari inson qalbi, ma’naviy izlanishlari va hayotiy muvozanat masalalarini chuqur badiiy talqin etishi bilan ajralib turadi.

Yozuvchining “Muvozanat” romani esa nafaqat syujet va obrazlar tizimi, balki ko‘tarilgan dolzarb muammolari bilan ham e’tiborga loyiqdir. Asarda insonning ichki dunyosi, e’tiqodi, hayotdagi o‘rni va maqsadi kabi muhim masalalar ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan. Mazkur ishning dolzarbligi shundaki, “Muvozanat” romanida aks etgan muammolar bugungi kun jamiyati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson hayotidagi muvozanatni saqlash, ma’naviyat va moddiy o‘rtasidagi uyg‘unlikni topish, turli qarashlar o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lni tanlash kabi masalalar har qanday davr uchun



dolzarb bo'lib qolaveradi. Tadqiqotning maqsadi — Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanini badiiy-tahliliy jihatdan o'rganish, undagi asosiy g'oya va obrazlar tizimini ochib berish hamda asarda ilgari surilgan muvozanat tushunchasining mohiyatini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: asarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, bosh qahramonlar xarakterini ochib berish, yozuvchining badiiy uslubini aniqlash hamda asarning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rnini belgilash. Shu tariqa, mazkur tadqiqot zamonaviy adabiyotda inson ruhiyati va ma'naviy izlanishlarini yoritishda "Muvozanat" romanining o'rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Hech kimga sir emaski, kundan kunga ilm fan ham adabiyot ham rivojlanib bormoqda. Ilm-fanning o'sib borishi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotimizning ham o'zgarishiga asos bo'ladi. Ayniqsa, mustaqillik davriga kelib, o'zbek adabiyoti rivojlanishning yuksak cho'qqisiga chiqdi. Adabiyotimizga yangi qarashlar, yangicha uslublar kirib kela boshladi. Bugungi kunga kelib, yozuvchilar milliy qadriyatlarimizni o'z asarlarida ochiqdan ochiq yoritib boshladilar, bu esa adabiyotimizning jamiyatdagi o'rni qanchalik muhim ekanligini belgilaydi. O'zbek adabiyoti ham jahon adabiyotida o'ziga yarasha o'rin egallay boshladi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Agar biz O'zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa millat yashaydi". Adabiyot azaldan jamiyatlar mohiyatini aks ettiruvchi, ularning qadriyatlari, e'tiqodlari va kurashlarini o'zida mujassamlashtirgan ko'zgu vazifasini o'tagan. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining eng faol, teran fikrli yozuvchilaridan biri - Ulug'bek Hamdam ham zamonaviy o'zbek adabiyoti olamida romanlari milliy o'zlik va umuminsoniy kechinmalarning uyg'unligidan dalolat beruvchi ko'zga ko'ringan siymo sifatida namoyon bo'ladi. Hamdam o'zining ta'sirchan hikoyalari va nozik xarakteristikalarini orqali madaniy meros va individual intilishlar murakkabliklarini yo'lga qo'yadi va o'quvchilarni geografik chegaralardan oshib ketadigan sayohatga chorlaydi. Ulug'bek Hamdam (Hamdamov Ulug'bek Abduvahobovich) 1968 yil, 24 aprelda Andijon viloyati, Marhamat tumanida tug'ilgan. 1988-1993-yillarda ToshDU ning o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 1992-93-yillarda esa davlatimiz tashabbusi bilan o'qishga yuborilgan talabalar safida Turkiyaning Ko'nyo shahrida tahsilni davom ettirgan. 1993-1994-yillarda Sharqshunoslik institutida turk tilidan dars bergan. 1994-1996-yillarda Hozirgi Milliy Universitet o'zbek filologiyasi fakultetining kunduzgi aspiranturasini o'qigan. 1997-yilda "30- yillar o'zbek she'riyatida "sof lirika" muammosi" (Oybek she'rlari misolida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Hozirda "XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqda. Ilmiy maslahatchi - filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov. 1997-2009-yillarda O'zbekiston Fanlar



akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot institutida katta ilmiy xodim, 2009-yildan beri "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri lavozimida ishlab kelmoqda. Bugungi kunda o'zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug'bek Hamdam o'zining chuqur sermazmun roman va hikoyalari bilan xalq og'ziga tushgan yozuvchilardan biridir. Uning "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" kabi romanlari, "Uzoqdagi Dilnura" qissa va hikoyalar to'plami XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega. Shuningdek, "Tangriga eltuvchi isyon", "Atirgul" va "Seni kutdim" she'riy to'plamlari, "Badiiy tafakkur tadriji", "Yangilanish ehtiyoji", "Yangi o'zbek she'riyati" nomli monografiyalari (muayyan mavzu yoki muammoni, biror olim yoki yozuvchi hayoti va faoliyatini atroflicha, chuqur tadqiq etuvchi ilmiy asar) ham nashr etilgan. Ulug'bek Hamdam zamonaviy o'zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko'p o'girilayotgan va O'zbekistondan tashqari e'tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlaridan biridir. Uning "Isyon va itoat" romani, "Yolg'izlik" qissasi, o'ngga yaqin hikoyasi va bir qancha she'rlari ingliz tiliga o'girildi. "Muvozanat" romani va "Tosh" hikoyasi Amerikada e'tirof etildi. Ulug'bek Hamdam ijodi yangilikka, yangilanishlarga boy. Bu haqda adabiyotshunos olimlar, tanqidchilar ham alohida e'tirof etadilar. Yozuvchining adabiyotga chaqindek kirib kelib, kattayu kichik kitobxonlarga birdek ma'qul bo'lgan "Muvozanat" romani e'lon qilindi-yu, bunga har bir tanqidchi, adabiyotshunos olimlar munosabat bildirmay qolmadi. "Muvozanat"ning ro'yobga chiqishida ustoz O.Sharafiddinov roli katta, buni yozuvchi uchrashuv va suhbatlarida har vaqt minnatdorlik bilan e'tirof etadi: "Romanni o'qib chiqar ekanman, bugungi kun odamini tasvirlashda xali realizmning ochilmagan imkoniyatlari ko'p ekaniga imon keltirdim" . Ulug'bek Hamdam roman yozilgan payti ko'pchilikni qiynayotgan, ko'pchilikning ong-u qalbida kechib o'tgan yoki kechib turgan holatni qalamga oldi. Bu holatni Dilmurod Quronov shunday izohlaydi: "Muvozanat" mavzu jihatidan g'oyat dolzarb va muhimi, bir paytlari o'z vaqtida yozilgan roman sifatida dunyoga keldi... " "Muvozanat" romanida yaqin o'tmishimiz, odatlanilgan turmush tarzidagi o'zgarishlar ruhiyatimizda keskin evrilishlarni keltirib chiqargan davrdagi muvozanatsizlik holati qalamga olingan. Asar ushbu jihatdan g'oyat dolzarb muammoga bag'ishlangan. Romanda tanlangan mavzu, asar g'oyasi roman nomidan seziladi. Romanda yangi davr ostonasida turgan insonning qalbidagi mezonni ijtimoiy tuzum, davr va makon o'zgarishlari oqibatida ma'lum darajada buzilishi, saqlab turilgan muvozanatni qalqib ketishi keng ko'lamda yoritiladi. Romanda yangi davr ostonasida turgan insonning qalbidagi mezonni ijtimoiy tuzum, davr va makon o'zgarishlari oqibatida ma'lum darajada buzilishi, saqlab turilgan muvozanatni qalqib ketishi keng ko'lamda yoritilgan. Bir qarashda oddiydek tuyilgan muvozanat tushunchasi asar davomida nihoyat katta mohiyat kasb etadi. U turmushning, hayotning inson ma'naviyatining har bir jabhasida o'zini namoyon eta boshlaydi. Asarda yozuvchi istiqloлга erishganimizdan keyingi davrni, muhitni yoritib berishga ayni tushunchani asosiy mezon sifatida asarning



bosh g'oyasi, mavzusi bilan bog'laydi. Asar kompozitsiyasi va syujeti ham ana shu asosda tuziladi. Romanning bosh qahramoni Yusufning taqdiri, uning iztirobli izlanishlari turganini har bir kitobxon his qilishi tabiiy. Muallif qahramonlar taqdiri misolida o'sha davrdagi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy muhitni yoritib berishga harakat qilgan. Buni biz romanda keltirilgan Yusufning qarashlarini olishimiz mumkin: "Axir kechagina rahbar lavozimida ishlab turgan chog'ida Said qanaqa edi, bugun ishdan ketib, uyda o'z qismati bilan yolg'iz qolganda qanday? Kecha uning yuzlaridan, gap so'zi-yu butun harakatlaridan kuch yog'ilardi. O'zini juda azim va arzigulik maqsadga bag'ishlagani hamda o'sha yo'lda dadil qadam bosayotgani sezilib turardi. Erishgan muvaffaqiyatlari shu qadar zo'r ediki, esiga bir paytlardagi qadrdon do'sti Yusuf ham kelmasdi. Bugunchi? Bugun u hammasidan mosuvo etildi va ilgari g'ayratidan, ko'zida chaqnab turgan olovdan asar ham qolmadi: cho'kdi-ketdi. Demakki, u o'zini tutib turgan maqsad-u manfaatidan ko'pchilik bilan bir deb his qilish yuksakligidan judo bolib, ijtimoy-ma'naviy jihatdan yakkalanib qoldi".

Avvalo, Yusuf dunyoviy fikrlaydigan, zamon kishisi, hayotini millatning haqiqiy tarixini yaratish yo'liga tutgan bu kimsa davr o'zgarishlarini teran his etadigan tarixiy jarayon, yurt istiqboli haqida mustaqil fikrga ega bo'lgan yetuk shaxs. Bozor iqtisodi munosabatlariga o'tish davri to'fonlari girdobida dastlab u o'zini yo'qotib qo'yadi, boshqacha aytganda, muvozanatini yo'qotadi. Buni yozuvchi "Yusufning ichida nimadir qarsillab sindi" deydi. Bu haqida adabiyotshunos olimi Marxabo Qo'chqorova shunday yozadi: "Muallif asarda biz eng oliy tuyg'ular deb inongan, gohida unga sajdalar qilgan, emrangan Muhabbat, Do'stlik, Birgalik tuyg'ular ham naqadar omonat ekanligi fosh etiladi. Xususan, bu Yusuf, Mirazim, Saidning o'zaro do'stona munosabatlarida isbotlanadi. Asarda hatto do'stlik ham vaqt o'tishi bilan o'z samimiyatini yo'qotadi, degan falsafa ilgari suriladi. Chunonchi asar qahramoni Yusuf o'z do'stlariga ishongan edi. Ammo do'stlari unga vafo qilishmaydi. Rafiqasi bilan ne umidlarda bir yostiqa bosh qo'ygan edi, lekin maqsadlar, intilishlar, ehtiyojlar boshqa-boshqa bo'lgani uchun ular ajrashishadi. " Yozuvchi asar qahramonlariga ism tanlashda ham ramziy ma'nolarni yuklagan. Masalan: Yusuf, Amir, Gulshoda Oygul... Romandagi barcha voqealarini harakatga keltiruvchi obrazning Yusuf deb atalishi ham bejiz emas, albatta. Chunki Sharq adabiyotida Yoqubning husnda va aql-u kamolotda yetuk yettinchi o'g'li - Yusuf. Adib bu qadimiy an'anani nazarda tutgan holda o'z qahramoniga Yusuf deb nom beradi". U juda ko'p sinovlarni boshidan kechiradi, moddiy qiyinchilik jabrini tortadi, oilasi, farzandidan ajraladi. Shu narsa ahamiyatliki, u ne-ne o'yxayollarga bormasin, turli-tuman ko'chalarga kirib chiqmasin, goho adolatsizlik, nochorlik tufayli har qancha o'rtanmasin, baribir qalbining tub-tubida o'zligiga, adolat tuyg'usiga sodiqligicha qoladi, millat, yurt qayg'usi haqida o'ylashdan bir zum ham to'xtamaydi. Romandagi eng yirik ta'sirchan obraz, shubhasiz, Amir obrazidir. Amir o'z davriga moslasha olmagan, qaysidir ma'noda



“adashgan odam”dir. U ruhi, vatani sog`bo`lishiga qaramay, jinnixonaga tashlanadi. Amir sog`lom bo`la turib o`zini jinnilikka solishga majbur bo`ladi. Jinnilar qo`lida pati yulib olingan musicha qiyofasida ramziy ma`noda u o`zini ko`radi. U o`zi yashayotgan hayotda o`z orzulariga erisha olmagach, qondirilmagan mayllar-o`z orzusidagi hayot, erishilmagan muhabbat - uning keying qismatida o`zining salbiy izini qoldiradi. Amir fojiasi - din, diniy-islomiy e`tiqod bobida haddini bilmagan mutaassib odamning fojiasi. Amirning ayanchli qismati diniy-islomiy qadriyatlarini tiklash jarayonida yuzaga chiqqan bandai ojizlikning bir ko`rinishi. Aslida ziyoli muallim, yaxshigina shoir bo`lgan bu odam dunyo ishlari, tashvishlaridan butunlay yuz o`girib, faqat taqvo, toat-ibodat, boriga shukur qilib, faqirona kun kechirish yo`lini tutadi; o`zi qolib o`zgalarni ham shu yo`ldan borishga majbur etadi, hatto o`zgacha qarashdagi otasi, onasiga, og`ainilariga, yaqinlariga ham kun bermaydi, ertayu-kech ibodat bilan bo`lib, tanglik sharoitida oilasini, kasalmand turmush o`rtog`ini, farzandlarini mushkul ahvolga solib qo`yadi. Holbuki, ustoz ko`rmagan bu chalasavod bu odam chillaga o`tirmasin edi, telba bir holatda darbadar tog` safariga chiqib, nogohon do`zax azobiga duch keladi, o`g`rilikda gumon qilinib, sharmandalarcha sazoyi etiladi” . Yozuvchi roman avvalida qahramonlari xarakteriga bergan ilk chizgilardayoq ular o`rtasidagi ziddiyatni yaqqol ko`rsatishga urinadi. Shahardan qishloqqa, ota uyiga kelgan Yusuf akasi Amir bilan suhbat qurar ekan, u bilan diniy-e`tiqodiy masalada murosaa qila olmaydi. Amir Yusufdan so`raydi: – Namoz o`qimay qo`yibsiz deb eshitdim. Shu rostmi? – Musulmonchilikda birlamchi nima, aka? – savolga savol ila javob qaytardi Yusuf. – Iymon. – Nega unda sizning birinchi savolingiz iymon haqida emas?” . Yusufning akasi bilan bahsi imon va amal haqida. Amir imon amal (ibodat) bilan birga bo`lishi shart ekanini aytsa, Yusuf musulmon uchun eng avvalo namoz emas, qalbdagi poklik muhim ekanini ta`kidlaydi: “ ... odamlar o`z amallariga ko`ra uchga bo`linadi: Oliy Nizomni himoya qiluvchilar, uni buzuvchilar va loqaydlar. Negadir ko`nglimda shunday bir qanoat borki, agar kishi o`sha Oliy Nizomning quruvchilaridan bo`lsa, u namoz o`qiydimi, o`qimaydimi, hajga boradimi-yo`qmi, baribir chin musulmondur” . Yusuf akasining faqat ibodat bilan cheklanib, oilaga, ro`zg`orga e`tibor qilmay qo`yganidan ranjiydi. U akasiga dinda o`rta yo`lni tutish lozimligini, ibodat tushunchasi kengroq tushuncha ekanini, halol mehnat bilan rizq topish va bola-chaqani boqish ham farz amallardan ekanini uqtirmoqchi bo`ldi. Lekin Amir ham bo`sh kelmaydi, “Har qancha vaj-karson ko`rsatmagin, Allohning farz qilganlari o`z o`rnida qoladi. Uni o`zgartirish uchun qancha bahona to`qimagan, bekor” deb javob beradi. Bu o`rinda yozuvchi ikki tarafning ham xulosalarini to`g`ri deyishga urinmaydi. Zero, e`tiqod masalasida har ikki qahramon ham muvozanatni yo`qotgan. umumlashtiruvchi vositaga aylanadi. Amir – romandagi eng murakkab, ziddiyatli qahramonlardan biri. U ba`zan juda ham aqlli, mutafakkir ko`rinadi, ba`zan esa



johil. Yana ba'zan mo'tadil dindordan bo'lsa, ba'zan mutaassibga aylanadi. Xullas, bir qarashda Amirni tushunish qiyin. Lekin uning murakkab hayoti, taqdiriga qaralsa, qahramonning bunday chigal xarakterini tushunish mumkin bo'ladi. Amir fojeasining asl ildizlari sho'rolar davrida dinning jamiyat hayotidan ihotalanishiga borib taqaladi. Ya'ni odamlarning muhim hayotiy-ruhiy ehtiyojlaridan biri bo'g'iladi. "Mening o'ttiz besh yoshimgacha o'risning zamoni edi. Qur'onning nimaligini bilmasdik"- deydi Amir. Yurt mustaqillikka erishgach, odamlarga diniy erkinlik berildi. Biroq ayni vaqtda zamon murakkablashdi, iqtisodiy muvozanat buzildi. Qishloqda o'qituvchilik qilib, durustgina kun kechirib kelayotgan Amirning turmushi parokanda bo'ldi. Ana shunday pallada Amir najotni dindand izladi. Davlat va jamiyat bag'rida himoyasiz qolgan o'qituvchi butun borlig'i bilan o'zini din bag'riga otdi. Natijada bu dunyoni unutib, hayotiy muvozanatini yo'qotdi. Amir obrazi orqali farz amallar deganda faqat namoz, haj, zakot kabi muhim amallarnigina tushunib, ijtimoiylikka daxldor, masalan, o'z farzandlarini boqish, himoya qilish kabi farz amallarni chetlab o'tadi. U imonsizlik va beamallik ruhiy muvozanatni izdan chiqarishini aytib, bunga g'arb hayotini misol tariqasida ko'rsatadi. Shunda Yusuf "Aka, o'shalar barpo etgan moddiy hayot darajasiga erishmas ekanmiz, bizning ham ruhiy butunligimizga darz ketishi aniqqa o'xshaydi" ,- deya izoh beradi. Muxtasar qilib aytganda, biz Amirning taqdirida Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning: "Kimki dinda qattiq (g'uluv) ketsa, din uni mag'lub qilishi" haqidagi hadisining hayotiy misolini ko'ramiz. Said - Yusufning kursdoshi, yaqin do'sti. U Yusufdan farqli o'laroq ilmni emas, hokimiyatni tanladi. Odamlarni, jamiyatni harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida PUL va HOKIMIYATni ko'rdi. U do'sti Yusufning tarix, milliy g'urur, madaniyat, ma'rifat kabi qarashlarini xomxayol sifatida baholaydi. Ammo shu kabi qarashlari uning "hokimiyatida" bo'shliqlarni paydo qiladi. Mirazim esa butunlay boshqa olam, dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi. "Qornim to'q, boshim sog' , shuning o'zi bas manga. Yetti ajdodimiz savdogar o'tgan, men hech o'ylanmay o'shalarning ishini davom ettiraman" . Mirazim - juda ham badavlat tadbirkor. Ko'ngli nimaniki tusamasin, bari muhayyo. Dang'illama uy-joylar, eng so'ngi rusumdagi avtomobillar, ko'ngilxushlik uchun go'zal ayollar, dabdabali bazmlar - bular Mirazim topgan hayotiy "ne'mat"lar. "Hayot Mirazimdan hech narsani ayamayotgan edi, u nimaga qo'l uzatsa, uzib olayotgandi. Faqat bir narsa - oldinda uni kutib turgan maqsad - manzil yo'q edi" Muammo shundaki, uning boshqa orzu-istaklari mavjud emas. Aniqrog'i, boshqa istaklarning tug'ilishiga zamin yaratuvchi ma'naviy asosning o'zi yo'q. Shunday ekan, pul bilan erishish mumkin bo'lgan barcha ne'matlarni qo'lga kiritgan Mirazim qalbining tub-tubidagi katta bo'shliqni seza boshlaydi. Xotini Zahro bilan munosabatlariga darz ketadi. Oilaviy baxt topa olmaydi. Qolaversa, o'zi qurgan biznes imperiyaning juda ham mo'rt ekanini, birgina shaxsning mansabdan ketishi oqibatida bu imperiyaning kuli



ko'kka sovurilishi mumkinligini his qiladi, doim halovatsiz yashaydi. U Hamdam Said obrazi misolida zamonaning tipik amaldorini tasvirleydi. Uning otashin nutqlari real hayotga sira mos emas, balki butunlay zid keladi. "Mana endi, – bazmlarning birida aytadi Said, – ko'krakni kerib yashaydigan zamon keldi. Nihoyat, o'zbekning yelkasiga ham oftob tegdi". Endi shu Saidning zamonida qishloqdagi Yusufning bolalik do'sti Sodiqning bergan savolini eslang: "Nega biz ochmiz?!" Adibning kinoyasi shuki, Said qanchalik aqlli, farosatli bo'lmasin, aytganlari samimiy – bunga, avvalo uning o'zi ishonadi. Agar shunday bo'lmaganida tor doirada, necha yillik qadrdonlariga bunday havoyi gaplarni aytmagan bo'lardi. Saidning otashin nutqi davom etadi: "O'zbekistonni necha o'nlab mamlakatlar tan oldi. Necha o'nlab mamlakatlar poytaxtida bizning elchixonamiz, necha o'nlab mamlakatlarning elchixonalari bizning Toshkentimizda mavjud. Yusuf, ishon, bizga Mirazimboydek puldoru, senga o'xshagan fidoiy kishilar judayam zarur". Yusuf do'stining so'zlari samimiy ekaniga ishonsa ham, uning gaplari o'ziniki emasligini biladi. Ya'ni barcha amaldorlarga xos bo'lgan qolip gaplar bu, " ...o'zining gapini qanday topib gapirsin? Axir buning uchun kishining oyog'i o'z zaminida – o'z aql-u idroki, kuchu g'ayrati orqali bino etgani muhitda mustahkam turmog'i kerak bo'lmaydimi?"- deya xayolidan o'tkazadi Yusuf. O'qishni bitiribdiki, mansab zinalarining y uqorisiga ko'tarilib borgan Said ma'lum bosqichga yetganda reallikdan – yashab turgan muhitidan uzilib qoladi. Yozuvchi bu holni aravani tortib ketayotgan bosh amaldorning yo'rig'iga yo'rg'alash, u qaysi qo'shiqni kuylasa, atrofidagi barcha anglab-anglamay shu unga jo'r bo'lishga majbur ekanidan deb biladi. Yusuf oliygohda bir maqsad bilan o'qidi, undan so'ng oliygohda ishladi. U faqat halol yo'ldan bordi. Oilasini oylik maoshi bilan boqdi. Lekin shaharda bugina pul bilan kun ko'rish qiyin edi. Turmush qiyinchiligi tobora o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ijarama ijara ko'chib yurish, moddiy qiyinchilik uning Oygul bilan munosabatlari keskin tus olishiga sabab bo'ldi. Oila qanchalik oqibatli, ittifoq bo'lmasin moddiy qiyinchilik baribir o'z ta'sirini ko'rsatadi. Orada muvozanat susayadi. U o'g'lidan ayrilayotganida muvozanatni yo'qotadi. Yusuf obrazi – millatparvar, vatanparvar, ko'tarinki ruhiyatga ega inson. Romandagi tarixchi Muhammadjon aka davri o'tgan odam obrazidir. U o'zining yolg'on asosga qurilgan hayotini tushunib yetadi. Shuning uchun ko'zi ochiq ketadi. Qushlarning qafasdan chiqarib yuborilishida inson erkiga ramziy ishoralar beradi. Muhammadjon aka sevgan qushlarini ozodlikka qo'yib yuborar ekan: "Bu yerda bog'lar ham qolmadi, tog'lar ham. Hammasini yakson qilib, bag'rini tilib, Paxtazorga aylantirishdi bular!... Bor, qushim, uch, endi, uch!" Davr ruhiyati inson kechinmalariga ta'sir ko'rsatyaspti va inson o'zi bilan o'zi kurashib qilgan ishlarini anglab yetmoqda. Bu asarda eng ta'sirchan obraz - Amir mavjud o'tmish davrining o'ziga kishisi. Amirning tani va ruhi sog' bo'lishiga qaramasdan, u jinnixonaga tashlanadi. Amir sog'lom bo'lishiga qaramasdan, u o'zini jinnilikka soladi, jinnilarning



qo'lda pati yulingan musicha qiyofasida ramziy ma'noda o'zini ko'radi. Negaki, o'zi yashayotgan davrdagi hayotda o'z ozrularini amalga oshira olmagach, qondirilmagan mayllar - o'z orzusidagi hayot, erishilmagan muhabbat - uning keyingi qismatida o'z izini qoldirdi. Ulug'bek Hamdam yaratgan obrazlar bugungi kunning kishilari bo'lib, ulardagi ko'ngil tovlanishlari, xarakterlardagi nozik qirralarini berilganligi diqqatga sazavordir. Ulug'bek Hamdamning romanlari alohida mavqeda turishi, ulardagi mavzu va g'oya uyg'unligi, o'ziga xos uslub va mahorati, obrazlarning yangicha talqinda berilishi, xarakterlarning hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Adibning romanlarida muvozanat tushunchasi keng va ta'sirli ifodalanadi. Jumladan, har narsada me'yor bo'lganidek, botiniy va zohiriy muvozanat, moddiy va ma'naviy muvozanat kabi. Muallif olamda muvozanat bilan muvozanatsizlik o'zaro almashinib turishi qonuniyat maqomidagi hodisa, shunga qaramay, inson dunyoning mavjudligini mohiyatiga muvofiqlashtirishga intilib yashashi zarur, bu insonlik vazifa, inson hayotining mazmuni ekanligini aks ettirgan. Asardan shunday xulosaga kelish mumkinki, butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo'lsa, jamiyat ham, uning asosini tashkil qilgan insonlar ham ayni muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti hayotda, demak, uning a'zolari orasida har xil kutilmagan o'zgarishlar, hatto izdan chiqishlar boshlanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ulug'bek Hamdam ijodi XX asr o'zbek adabiyotida ijodiy izlanishlarga boyligi jihatidan salmoqli o'rin tutadi. Uning ijodidagi shakliy va mazmuniy yangilanishlar o'zbek nasrining imkoniyatlari kengligini isbotladi va uni yana bir pog'ona yuqori ko'tara oldi. Asarning nomi, undagi men anglagan asosiy mazmun esa jism va ruhdan iborat insonning ikki xil muvozanat - din va dunyo ishlari hamda moddiy va ruhoniyyatara muvozanatni o'rnata olishi muhimliigi haqida. Butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo'lsa, asosini tashkil qilgan insonlar ham muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti, jamiyatda ham, insonlar ruhiyatida ham o'zgarishlar yuz beradi. Adibning nafaqat romanlari, balki qissa va hikoyalarini o'qiganimizda ham asar qahramonlari va davr ruhiyatini haqqoniy qirralarda tasvirlab, yozuvchilik mahoratini to'liq namoyon etganligini ko'ramiz. Ulug'bek Hamdam ijodini chuqur limit tadqiq etish adabiyotshunoslik ilmi uchun yangi ma'lumotlar beradi. Demak, bu boradagi izlanishlarni ko'paytirish foydadan holi emas.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulug'bek Hamdam "Muvozanat" Yangi asr avlodi 2021-yil
2. S.D.Quronov. "Ulug'bek Hamdamning muvozanat konsepsiyasi" maqolasi
3. Qo'chqorova Marhabo "Muvozanat romanida shartli ramzlar" maqolasi



4. Shohsanam Samatova “Ulug’bek Hamdam ijodida davr ruhiyati va talqin mahorati”  
maqolasi

